

Asfandiyorxon (shayboniy)



Asfandiyorxon (shayboniy)

(Isfandiyorxon) (? – 1643)

(1623-1643)

Xiva xoni, **Arab Muhammadxon**ning o'g'li. **Shayboniylar sulolasidan**. Turkmanlar yordami bilan ukasi **Elbors** (Ilbors) **Sultonni** taxtdan ag'darib, 1623 yili Xivada xonlik taxtiga o'tirdi. U turkman zodagonlariga tayanib ish yuritdi. Eron davlati qo'liga o'tib qolgan Janubiy Turkmanistonni Xiva xonligiga qo'shib olishga intildi, ammo 1628 yilda safaviylar qo'shinidan yengildi. XVII asrning 30-40 yillarida Buxoro va Rossiya bilan savdo-sotiq ishlarini olib boradigan karvonlarga zarar yetkazayotgan qalmoqlarga qarshi qattiq kurash olib bordi; qalmoqlarga qarshi ittifoq tuzish maqsadida Moskva bilan muzokaralar yuritdi. **Arab Muhammadxonni** o'ldirishda **Habash Sulton** bilan **Elbars sultonga** yordam bergani uchun Xorazmdagi uyg'ur va nayman qabilalarining chorva mollarini tortib oldi va ularga qarshi qirg'in uyushtirdi. Bu fojidan qutilish uchun o'zbeklarning boshqa qabilalari Xivadan Movarounnahr, ba'zilar esa Mang'ishloq yoki qozoq dashtlariga ko'chib ketdilar.

Asfandiyorxon davrida tarqoqlik va xalq ommasini ezish yanada kuchaydi, bu esa mehnatkashlar noroziligiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan yer mulkdorlari o'z vakillaridan biri **Abulg'oz Bahodir**ni Asfandiyorxonga qarshi qo'ydilar. Natijada 1643 yil Orol o'zbeklari **Abulg'ozini** xon qilib ko'tardilar. Xuddi shi yili Asfandiyorxon vafot etdi. Oradan 2 yil o'tgach, **Abulg'oz Bahodirxon** Xivada taxtda o'tirdi.

2023-11-05 18:19:05